

**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi faoliyati bo'yicha Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining yagona telefon raqami xizmati**

**REGLAMENTI**

**1. XIZMAT KO'RSATISH MAZMUNI**

**1.1. Xizmat ko'rsatish nomi**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi faoliyati bo'yicha Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining yagona telefon raqami (bundan keyingi o'rinlarda – "yagona telefon raqami").

**1.2. Xizmat ko'rsatish natijasi**

Yagona telefon raqami vazirlik rahbariyati, jumladan vazir va uning o'rinbosarlarining ish vaqti, qabul kunlari, boshqarma va bo'lim boshliqlari, mutaxassislar va soha faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha mas'ul rahbarlar, muassasalar bilan bog'lanish to'g'risida ma'lumot beradi.

**1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organ**

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining ko'p kanalli (0 371) 238-41-07 shahar telefon raqami orqali amalga oshiriladi.

**1.4. Xuquqiy asoslari**

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 3 dekabrda «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 martdagi «Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida»gi 73-sonli qarori, vazirlikning 2015 yil 2 apreldagi «Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida»gi 48-son buyrug'i.

**1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar**

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda uning tizimidagi muassasalarning iste'molchilari, jismoniy va yuridik shaxslar, xorijlik yuridik va jismoniy shaxslar hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

**1.6. So'rovnomalar berish muddati**

Yagona telefon raqami orqali ma'lumotlarni haftaning ish kunlarida, soat 09:00 dan 18:00 ga qadar taqdim etish ko'zda tutilgan.

**1.7. Ijro muddati**

Yagona telefon raqami orqali sohaga taalluqli rahbarlar, mas'ul xodimlar va korxonalar to'g'risida ma'lumotlar o'sha zahoti javob olinadi.

**1.8. Tasdiqnoma yuborish muddati**

Yagona telefon raqami orqali qabul qilingan murojaatlar qabul qilinganligi to'g'risida tasdiqnoma yuborish ko'zda tutilmagan.

## **2. XIZMATDAN FOYDALANUVCHILARNI XABARDOR QILISH**

### **2.1. Ma'lumot hajmi va tarkibi**

Yagona telefon raqami orqali ma'lumot olish to'g'risidagi ma'lumot Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining [www.mitc.uz](http://www.mitc.uz) saytida joylashtiriladi.

### **2.2. Tasdiqlangan blanka (forma)lardan foydalanish**

Yagona telefon raqami orqali xizmatidan foydalanishda tasdiqlangan blanka (forma)lar ishlatilmaydi.

## **3. XIZMAT KO'RSATISH**

### **3.1. Ish vaqti**

Vazirlikning Yagona telefon raqami sutkasida 24 soat davomida faoliyat ko'rsatadi.

### **3.2. Kutish shartlari**

Yagona telefon raqami orqali qabul qilinadigan murojaatlar o'sha zahoti javob qaytariladi va kutish ko'zda tutilmagan.

## **4. XIZMAT KO'RSATISH TARTIB - TAOMILI**

### **4.1. Talab qilinadigan hujjatlar**

Yagona telefon raqami orqali qabul qilinadigan murojaatlar chog'ida jismoniy yoki yuridik shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar, murojaatning mohiyati murojaatni qabul qilayotgan mas'ul xodimning so'roviga ko'ra, bayon etilishi kerak.

### **4.2. Xizmat ko'rsatish qiymati**

Xizmat bepul ko'rsatiladi.

### **4.3. Xizmat ko'rsatishning bosqichlari**

Yagona telefon raqami quyidagi mavzularda ma'lumotni taqdim etadi:

- Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyati, boshqarma va bo'limlar bo'yicha;
- Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidagi korxonalar-tashkilotlar bo'yicha.

### **4.4. Xizmat ko'rsatishning ichki-idoraviy harakatlari**

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida Yagona telefon raqami tizimi vazirlikning (0 371) 238-41-07 raqamida o'rnatilgan bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qo'ng'iroq qilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga daxldor ma'lumotlar taqdim etiladi.

### **4.5. Rad qilish asoslari**

Xizmatda rad qilish holatlari ko'zda tutilmagan.

## **5. SIFATNI TA'MINLASH**

### **5.1. Xizmatning sifatsizligi bo'yicha shikoyat qilish**

Yagona telefon raqami xizmatidan foydalanuvchi ko'rsatilgan sifatsiz xizmat, xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya qilmaslik holatlari bo'yicha, mansabdor shaxslarning harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat berish uchun Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligidan yuqori turuvchi organiga (yuqori turuvchi mansabdor shaxsiga) yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.